

HOZIRGI DAVR NEMIS TILI LUG‘ATLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI HAMDA ELEKTRON LUG‘ATLARNING PAYDO BO‘LISHI

Rahimova Mahzuna Husan qizi

O‘zMU, XFF, Nemis filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi
mahzuna95@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi davr nemis tili lug‘atlarining shakllanish bosqichlari va elektron lug‘atlarning paydo bo‘lishini tahlil qiladi. 1952-yildan boshlab nemis leksikografiyasida yuz bergan o‘zgarishlar, xususan Berlindagi Nemis tili va adabiyoti institutining tashkil etilishi va Wolfgang Shtaynitsning zamonaviy lug‘at g‘oyalari muhokama qilinadi. Opa-singil Rut va Helene Klappenbah rahbarligidagi loyiha hamda mazkur lug‘atning manba sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Duden seriyasining yangi nashrlari, 1980–1990-yillarda lug‘atga kiritilgan yangi leksik birliklar (masalan, Aids) va 1990-yillardan boshlab kompyuter texnologiyalarining leksikografiyaga ta’siri, elektron lug‘atlar misollari — Duden Universal Wörterbuch (1996, CD-Rom) va GWDS CDdagi EDV leksikasi (taxminan 500 kalit so‘z) tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nemis leksikografiyasi, zamonaviy nemis tili, universal lug‘at, elektron lug‘at, EDV / EHM, kompyuter leksikasi

Аннотация : В статье анализируются этапы становления современных немецких словарей и появление электронных словарей. Рассматриваются изменения, произошедшие в немецкой лексикографии с 1952 года, в частности, создание Института немецкого языка и литературы в Берлине, а также современные словарные идеи Вольфганга Штайница. Освещается проект, возглавляемый сестрами Рут и Хеленой Клаппенбах, и значение этого словаря как источника. Также анализируются новые издания серии Duden, новые лексические единицы, введенные в словарь в 1980–1990-х годах (например, Aids), и влияние компьютерных технологий на лексикографию с 1990-х годов, примеры электронных словарей – Duden Universal Wörterbuch (1996, CD-Rom) и лексикон EDV на CD GWDS (около 500 ключевых слов).

Ключевые слова: немецкая лексикография, современный немецкий язык, универсальный словарь, электронный словарь, EDV/EHM, компьютерный лексикон

Annotation: This article analyzes the stages of formation of modern German dictionaries and the emergence of electronic dictionaries. The changes that have occurred in German lexicography since 1952, in particular the establishment of the Institute for German Language and Literature in Berlin and the modern dictionary ideas of Wolfgang Steinitz, are discussed. The project led by sisters Ruth and Helene

Klappenbach and the importance of this dictionary as a source are highlighted. Also, new editions of the Duden series, new lexical units introduced into the dictionary in the 1980s–1990s (e.g. Aids) and the impact of computer technology on lexicography since the 1990s, examples of electronic dictionaries - the Duden Universal Wörterbuch (1996, CD-Rom) and the EDV lexicon on the GWDS CD (about 500 keywords) are analyzed.

Keywords: German lexicography, modern German, universal dictionary, electronic dictionary, EDV / EHM, computer lexicon

XX asr oʻrtalaridan boshlab nemis leksikografiyasida muhim yangilanishlar yuz berdi. 1952-yilda Wolfgang Shtaynits boshchiligidagi Berlindagi Nemis tili va adabiyoti instituti tashkil etilishi zamonaviy lugʻat tuzish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu institut Grimm lugʻatining anʼanalarini davom ettirib, iqtisod, texnika, siyosat va sanʼat kabi sohalardan keladigan soʻz birikmalarini ham qamrab oluvchi kengroq taʼrif va namunalar toʻplamini yaratishni maqsad qilgan. Rut va Helene Klappenbah kabi leksikograf ayollarning rahbarlik qilishi bu jarayonda xos ahamiyat kasb etdi va lugʻatning manbaviy bazasini kengaytirdi.[5,112]

Keyingi yillardagi Duden seriyasining yangilanishlari va uni elektron shaklga oʻtkazish jarayoni (masalan, 1996 yildagi Duden Universal CD-Rom) leksikografiyaning tezkor oʻzgarishiga sabab boʻldi: yangi texnik va ijtimoiy atamalar lugʻatlarga kiritildi (Aids, Assembler, elektronisch, Desktop - Publishing va boshqalar). Elektron lugʻatlarda maqola maʼlumotlarini saqlash, yangilash va kengaytirish imkoniyatlari ortib, EDV/EHM sohasidagi taxnologik terminologiya keng qamrovli roʻyxatga aylantirildi (GWDS CDda EDV boʻlimi uchun taxminan 500 kalit soʻz).

Ushbu maqola lugʻat tuzish tarixini va elektron formatga oʻtishda yuzaga kelgan muhim tendensiyalarni yoritib, kelajakda nemis leksikografiyasi uchun yangilanishlar va texnologik integratsiya istiqbollarini koʻrsatadi. 1952-yilda nemis leksikografiyasida tilshunos olim Viegand tomonidan yangicha davr boshlandi.[4,54]

Berlindagi nemis fanlar akademiyasi qoshida nemis tili va adabiyoti instituti tashkil etildi. Bu nafaqat Grimm nemis tili lugʻati vazifasini, balki hozirgi til funksiyalarini ham oʻz zimmasiga oldi. Ushbu institutning ochilish kuniga bagʻishlangan nutqda Finougrist Wolfgang Shtaynitz “Hozirgi davr nemis tilining vazifalari” toʻgʻrisida maʼruza qildi. Bu nutqda u zamonaviy nemis tili grammatikasiga nisbatan fikrlari, Marks-Engels lugʻati va 5dan 6 bandgacha qamrab oluvchi zamonaviy lugʻat haqida qisqacha bayonot berdi. Bu lugʻat rejasini amalga oshirishda ikki ayol – Rut Klappenbah va uning opasi Helene Malige Klappenbah rahbarlik qildilar. Nemis leksikografiyasi tarixida ilk bor ayollar leksikografik ishlarga boshchilik qildilar.[9,88]

Opa -singil Klappenbah bilan birga turli o‘rinlarda taxminan o‘n beshtadan o‘ttiztagacha bosh leksikograflar ish olib bordilar. Bu jarayonda Shtaynitz maslahat komissiyasi rahbari sifatida amaliy maslahatlari bilan ishtirok etdi. Ushbu lug‘at hozirgi nemis tili leksikografiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega manbalar bazasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bu borada Shtaynitz lug‘atning birinchi bobi so‘z boshisida shunday yozadi: “lug‘at – hozirgi davr ta’lim qatlamining nemis tilini ifodalashi lozim. Ta’lim qatlami deganda esa, fan va san’at, texnika, iqtisod va siyosat, ijtimoiy tashkilotlar va partiyalarga mas’ul shaxslar tushuniladi, ular bizning jamiyat tilini badiiy, ilmiy va texnik adabiyot va ommaviy axborot vositalari orqali yoritib beradi.” [1,4]

Ushbu tarif zamonaviy nemis tilini umumiy va tipik tomonlari hujjatlashtirilganligini ta’kidlaydi. Ushbu lug‘atni tuzishdan maqsad- mashhur klassik asarlardan ba’zi muhim so‘zlarni keltirib o‘tish edi. Shuning uchun ham lug‘atda klassik davrda o‘n sakkizinchi- o‘n to‘qqizinchi asrlarda ijod qilgan Lessing, Gyote, Hayne, Arnold va Stefan Svayg, Haynrix Klaus, Tomas Mann, B.Breht kabi olimlarning asarlaridan keltiriladigan namunalarni ko‘rish mumkin.

Keyingi mashhur lug‘at bu 1983- yilda olti bandli Duden lug‘ati negizida yaratilgan bir bandli Duden universal lug‘ati bo‘lib, 1989-yilda ikkinchi nashri, 1996-yilda esa uchinchi nashri chop etilgan. Bu davr mobaynida yangi nashrlar aktuallashib boraverdi. Masalan, 1985- yildan *Aids (OITS)* lemmasi lug‘at tarkibiga kiritildi.[3,89]

Yigirmanchi asrning 90-yillaridan boshlab bu sohaga kompyuter texnikasi ham kirib kela boshladi. Bu kabi elektron lug‘atlarni tuzishda ko‘plab belgilar imkoniyatini hisobga olish zarur edi.

EDV (EHM) kalit so‘zi ostida Duden universal lug‘ati tarkibiga Assembler, Desktop- Publishing, einspeichern, elektronisch, Expertensystem, Modul, multivibrator kabi terminlar kirib keldi. Bu kabi aniq lug‘atni komputer jurnallaridan topish murakkab. Masalan, einspeichern< sw. V; hat>: 1. (Selten) als Vorrat, zur Aufbewahrung o. A. einlagern, speichern: Lebensmittel für den Winter e. 2. (Datenverarb.) (einer technischen Anlage, bes. einer EDV-Anlage) über Lochkarte, Lochstreifen o. Ä. eingeben: Daten, Programme (in den Rechner) [3, 145]

Ushbu lug‘atda “Computer” leksemasi 41 marta uchrasa, „Datenverarb.“ Leksemasi esa 154 marta ishlatilgan. Yana bir misol:

Die Maus meist auf Rollen gleitendes, über ein Kabel mit e-m PC verbundenes Gerät, das auf dem Tisch hin u. her bewegt wird, um den Cursor od. ein anderes Markierungssymbol auf dem Monitor des Computers zu steuern. [1,221]

Universal lug‘atda “Computer” mavzusi bo‘yicha jami 200 dan ortiq so‘z va ularning ma’nolari kiritilgan. Bu kabi lug‘atlar holatini saqlash murakkab bo‘lib, jadallik bilan rivojlanib kelmoqda hamda o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

O'n bandli Duden GWDS CD elektron versiyasida „EDV“ leksemasiga oid 500ta kalit so'zlar kiritilgan.

Bundan kelib chiqadiki, lug'atlarning elektron versiyasiga bo'lgan talab yuqori bo'ladi. Duden universal lug'atining yangicha media ko'rinishining imkoniyati kengligiga qaramasdan, M.Hausmann ta'kidlaganidek; „Rut Klappenbah 50, 60 va 70-yillarda WDG lug'atini yaratmaganda edi, hozirgi DUW (Deutsches Universalwörterbuch) lug'ati bo'lmas edi.“

Duden universal lug'atiga raqobatdosh lug'at bu – Wahrigning „Deutsches Wörterbuch“ (Nemis tili lug'ati) kitobidir, bu lug'at dastlab 1966- yilda „Das Grosse Deutsche Wörterbuch“ nomi ostida havola etilgan.

Quvonarlisi shundaki, bu lug'atda chet tili o'rganuvchilari integratsiyalashgan grammatik qoidalar, turlanish jadvallari berilgan. Tilshunos olim Viegandning ta'riflashicha Wahrig lug'ati nemis tilining asosiy so'z boyligi bo'libgina qolmay, zamonaviy tilda uchraydigan ilm-fanga doir atamalarni ham o'z ichiga olgan. Nemis tilining faol rivojlanishi sababdan, nemis tili lug'atiga EDV (EHM), tabiiy fanlar, tibbiyot va zamonaviy hayot tarziga oid 3000dan ortiq atamalar kirib keldi. [6,45]

Misol tariqasida quyidagi atamalarni keltirish mumkin: Browser, Computer, Internet, Edutainment, Call-in, Ghostwriter, Benchmarking, Outplacement, Mobbing, Peanuts (ebd).

Ilm va texnikaning rivojlanishi borasida Brockhaus – Wahrig (1980-1984) lug'atida leksikografiya sohasida birinchi marta komputerdan foydalanildi.

“Zamonaviy texnikaning yordamisiz hozirgi ma'lum miqdorini qisqa furstada amalga oshirish imkoni bo'lmasdi. Qat'iy sistematik tizim orqali lug'atlardagi ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlanadi.“ [7, 5]

Duden Das Grosse Wörterbuch der deutschen Sprache – 8 bandlik (1993-1995) Duden nashriyoti tomonidan 6 bandlik yangi qayta ishlangan lug'atida 1-nashrga qaraganda 30 mingta ko'proq so'zlarni jami bo'lib 200 mingdan ortiq so'zlarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari ikkinchi nashr to'liq yangi ishlangan.

2-nashrda muhim geografik otlar va tashkilot va institutlar nomlarining qisqartmalari shuningdek nemis tili so'z boyligining tamal toshini tashkil etgan so'zlarni qamrab olgan, bular yordamida esa so'z boyligi ortib boradi.

Birinchi nashrda zamonaviylik umumtil va fan tiliga urg'u berilganiga farqli ravishda ikkinchi nashrda lug'at madaniy boylik sifatida tilga olinadi. [1,5]

Lug'atlar ham madaniy boylik, ham keng qamrovli lug'at sifatida tushunilgan lug'at adabiy lug'atni qayd etishi va uning nafaqat tarixiy, balki zamonaviy adabiyotning badiiy sifatini semantik jihatdan tavsiflashi kerak. [5, 39]

Das Grosse Wörterbuch der deutschen Sprache in 10 Banden 1999 lug'ati so'z boshisida yozilishicha, lug'atlarning maqsadi quyidagicha:

- shaxsning til ko'nikmalarini shakllantirish
- zamonaviy nemis tilini hujjatlashtirish
- til madaniyatini targ'ib qilish.[8,23]

Texnik va maxsus atamalarni lug'atga kiritish uchun hal qiluvchi omil- ularning chastotasi, ya'ni kundalik og'zaki va yozma tilda qo'llanilishidir. [2, 23]

Lug'atlarda so'zlarning ma'nosi iloji boricha oddiy va sodda, barcha tushunadigan so'zlar yordamida berilishi lozim. [2, 37]

O'z-o'zidan ma'lumki, elektron lug'atida biror so'z qidirishga berilganda aynan shu so'z doirasidagi boshqa so'z va so'z birikmalari havola etiladi. Bu esa o'z navbatida foydalanuvchiga qulaylik beradi. Birgina ushbu lug'atda Hand so'ziga oid 60ta, Fuss so'ziga oid 24ta frazeologizm havola etilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda nemis tili lug'atlarining rivojlanishi uchun juda ko'plab omillar mavjud bo'lib, ayniqsa, elektron shakldagi lug'atlarga nisbatan talab ortib bormoqda. Hamda lug'at tuzishdagi so'z boyligini ortishi ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Duden Universalwörterbuch. 3., überarbeitete Auflage. Mannheim, Leipzig: Dudenverlag, 1996.
2. Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Band 1. 10. Auflage. Mannheim: Dudenverlag, 1980, S.4.
3. Duden Universal Wörterbuch, CD-Rom, Duden-Bibliothek Express, Berlin, 1996.
4. Viegand, Wolfgang. Die Aufgaben der deutschen Gegenwartssprache. Vortrag, eröffnetes Institut für Deutsche Sprache und Literatur, Berlin, 1952. (Archivpublikation)
5. Klappenbach, Ruth; Klappenbach, Helene Malige. Lexikografische Projektunterlagen und Kommentarien (Archivbestand). Berlin: Institut für Deutsche Sprache und Literatur, 1950–1960.
6. Wahrig Deutsches Wörterbuch, Vorwort zur Neuauflage, Bertelsmann Lexikon Verlag, München, 2000
7. Brockhaus Wahrig. Deutsches Wörterbuch. Hrsg. v. G. Wahrig, H. Krämer, H. Zimmermann. 6 Bd. 1980-84, Bd.1., Vorwort, Leipzig1980.
8. Das Große Wörterbuch der deutschen Sprache (GWDS), Dudenverlag, Berlin, 1992.
9. Hass Zumkehr. Deutsche Wörterbücher - Brennpunkt von Sprach- und Kulturgeschichte.- Berlin: De Gruyter, 2001.